

ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA KASALLIK KONSEPTI VA UNING PRAGMATIK TAHLILI

(“Ming bir jon” hikoyasi misolida)

U. E. Rahimov

Ilmiy Rahbar : f.f.n, Dotsent

Mo‘tabarxon Ozodbek qizi Soibjonova
Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon
davlat universiteti Filologiya fakulteti II bosqich talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqola Abdulla Qahhorning “Ming bir jon” hikoyasi asosida o‘zbek lingvomaydonidagi kasallik konsepti tadqiqi, ayrimlarining pragmatik tahlili hamda boshqa konseplar bilan aloqasiga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: kasallik konsepti, kasallik turlari, salomatlik, konseptologik assotsiativlik (sabr, g‘am-alam, siqilish, umid va boshqalar) Abdulla Qahhor, “Ming bir jon” hikoyasi, o‘zbek lingvomaydoin, kasallik tahlili, kasal

KIRISH

O‘zbek lingvomaydonida ifodalangan kasallik konsepti tadqiqidan avval konseptga doir verbal birliklarni tushunish jarayonini yengillashtirish maqsadida unga zid ma‘no anglatadigan salomatlik konseptiga bir qur nazar tashlash maqsadga muvofiq. Zeroki, kasallik turlari inson salomatligining normadan og‘ishi natijasida jism hamda ongda paydo bo‘luvchi verbal va noverbal birliklar, ya‘ni konseptning muayyan qirralari demakdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Salomatlik - nafaqat kasallik yoki nogironlikning yo‘qligi emas, balki to‘liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holatidir, degan fikrlar mavjud va biz sog‘lik mutaxassislari bo‘lmaganimiz uchun uni qanday ifodalanishi va tasvirlanishi ongda izi va unga bog‘liq assotsiatsiyalarini qanday leksik, grammatik va shu kabi bir qancha verbal birliklar orqali ko‘rib chiqishimiz joiz. Muayyan tilda sog‘lik tushunchasini belgilash va ifodalash ko‘plab metaforik birliklarning lingvomadaniyatga mutanosib ravishda ishlatilishi bilan xarakterlanadi. Bu nafaqat paradigmatic, balki sog‘lik, sog‘lom va salomatlik, sog‘lom leksemalarining sintagmatik munosabatlarida ham uchraydi. Assotsiativ bog‘lanishlardagi mavjud bo‘lgan og‘zaki reaksiyalarning talqini salomatlik hodisasining metaforik uzatish manbai bo‘lish qobiliyatini ko‘rish imkonini beradi. Aniqlangan lingvistik faktlar solishtirilayotgan tillarning lingvomadaniy makonida “salomatlik” tushunchasi uchun yangi kirish va chiqishlar paydo bo‘lganligi va demak, uning davom etayotgan faol shakllanishini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Salomatlik so‘zi sog‘lik, sihat (me‘yoriy, farovon kabi so‘zlar bilan

ma'lum bir matn doirasida) so'zlariga sinonim bo'lish bilan birga ushbu sinonimik qatordagi sihat leksemasi bilan birikib juft so'z shaklida ham qo'llanadi: 2005-yil sihat salomatlik yili [2]. Biz tadqiq etajak hikoyada ushbu salomatlik konseptiga antonimik para kasallik konseptiga doir bir qancha mulohazalarni keltirib o'tmoqchimiz.

NATIJALAR

Kasallik bu organizmga tashqi yoki ichki muhitning zararli omillari ta'sir etganda ro'y beradigan patologik jarayon [2]. Kasallik haqidagi tushuncha tibbiyot rivoji bilan bir qatorda muhit o'zgarishi ta'siri, undagi inson, hayvonot va nabotot olamiga ta'sir o'tkazgan zararli omillarining darajasi o'rta bordi . Kasallik konsepti tor ma'noda inson sog'ligining normadan og'ishi, keng ma'noda esa olamda mavjud va tirik deb hisoblangan jamiki jonzotlarning muhitning nojo'ya ta'siri yoxud nasldan-naslga o'tadigan genetik muammolar tizimi demakdirkim, ushbu hukmga dahldor kichik bo'lak ham konseptning bir qirrasini ifodalashi shundan. Kasallik konsepti , umuman olganda barcha konseptlar bamisoli kristall bo'lib, sanoqsiz qirralardan tashkil topadi. Bir qirrasini parchalash uning o'z ichidagi boshqa qirralarini ko'rsatib beradi, ammo konseptologiyani oxiriga yetish dargumon. Zeroki, bir konseptning shakli, ma'no anglatishi, ifodalanishi turli tillarda turli bo'lgani kabi turli madaniyatlarda ham turlichadir. Shu orqali lingvokulturologiyani o'rganish obyekti ham nega aynan konsept ekanligiga oydinlik kiritgandek bo'lamiz

Abdulla Qahhorning "Ming bir jon" hikoyasida kasallik konseptlari tor ma'noda qo'llangani sababli biz ham nazariy ma'lumot orqali inson organizmini tushunib , uning tashqi muhitga moslashuvida muvozanatning buzilishi va salbiy ta'sirlarni tadqiq etajakmiz. Kasallik deganda organizmning rivojlanish nuqsonlarini ham, irsiy kamchiliklarni ham, orttirilgan yoki yuqtirilgan va yaratilgan (Covid 19) jismoniy yoki ruhiy noqisliklarni barini tushunamiz. O'zbek lingvomaydonida yaqin yillardan buyon kasallik konsepti bilan birga immunitet tushunchasi keng qo'llanila bordi. Kasallik paydo qiladigan agent organizmga ta'sir etib, uni zararlantiradi, ayni chog'da bu agent organizmning himoya choralari va moslanish reaksiyalari safarbar bo'lishiga olib keladi. Ana o'sha safarbar kurashuvchi reaksiyalar immunitetdir va kasallik shu zararlantirish va himoyalantirish jarayoni. Har qanday kasallik umuman butun organizm hayot faoliyatining buzilishiga olib keladi, chunki organizm ham til kabi bir butun sistema. Aksariyat hollarda dardning badandagi o'rni, shuningdek, ma'lum bir a'zo yoki sistemaning ko'proq zararlanganini ko'rsatadigan belgilar aniq ko'rinib turadi va keyinchalik qaytalanish xavfini tug'dirish ehtimoli ham mavjud. Faqat ma'lum bir joyni shikastlaydigan ta'sirot, albatta, qanday bo'lmasin umumiy hodisalarga sabab bo'ladi. Masalan, suvchechak— o'tkir yuqumli kasallik; temperatura ko'tarilishi, teri hamda shilliq qavatlariga serozli pufakchalar toshishi bilan kechadi. Filtrlanuvchi viruslar qo'zg'atadi. Ko'pincha 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda uchraydi. Viruslar bemor yo'talganda, gapirganda, aksa urganda havo orqali sog' odamga o'tadi [2].

Kasallik turlari ko'p bo'lgani kabi kasallikning paydo bo'lish sabablari ham juda xilmaxil. Misol uchun tashqi ta'sir natijasida: zaharli, infeksiyon, allergik vositalar, parazitlar va hokazo; irsiy va shu kabilar.

Birok, ko'pgina Kasalliklarning avj olishi va o'tishida bunday davrlarni ro'yirost ajratib bo'lmaydi.

Kasallikning yashirin davri (infeksiyon kasalliklarda davr inkubatsion davr deb ataladi) zararlovchi agent ta'sir etgandan boshlab to dardning dastlabki belgilari paydo bo'lguncha davom etadi; bu davr bir necha lahzadan (shikastlanishda) bir necha yilgacha bo'lishi mumkin.

Prodromal davr Kasallikning ilk belgilari paydo bo'lgandan boshlab to u ro'yirost avj olguncha o'tadigan vaqtni o'z ichiga oladi. Bu davrda, odatda, talaygina Kasalliklarga xos bo'lgan bosh og'rig'i, qaltirash, isitmalash, lanj bo'lish va boshqa boshlanadi. Xullas, bu davrda odamning dardga chalingani aniq bo'ladi-yu, lekin qanday Kasallik bilan og'rganligini bilib bo'lmaydi. Kasallikka aniq tashhis qo'yish uchun harakterli bo'lgan belgilar ko'pincha bu davrning oxirida, Kasallik rasmana avj olgan paytda ko'zga tashlanadi, lekin ayrim hollarda bular notayin bo'ladi (Kasallikning bilinmaydigan shakli) yoki uncha avjiga chiqmasdan yo'qolib ketadi (Kasallikning abortiv shakli). Biroq, Kasallik juda tipik bo'lib o'tayotgan hollarda ham biror asorat yoki boshqa bir dard qo'shib qolishidan u boshqacha tus oladi. Kasallikning tugashi, ya'ni oxirgi tuzalish davri birdan boshlanishi yoki asta-sekin o'tishi mumkin. Ayni vaqtda odam butunlay sog'ayib ketadi yoki biror a'zosida Kasallikdan anchagacha yo'qolmaydigan asorat qoladi; ba'zan Kasallik butunlay yo'qolmasdan, vaqt-vaqti bilan qo'zib turadigan surunkali xilga aylanadi. Kasallikning asorat qoldirmay, esonomon o'tib ketishi ko'pincha unga qarshi o'z vaqtida davo qilish hamda vrachning hamma buyurganlarini becamu becamu ko'st bajarishga bog'liq.

Shuning uchun odam o'zini andek nosog' sezganida darhol vrachga borishi kerak. Zamonaviy tibbiyot bemor ahvoliga juda jiddiy qarab, uni kompleks tarzda tekshiradi; Kasallikning kelib chiqish sabablari va sharoitlari, avj olib borish mexanizmlari, qanday belgilar bilan o'tishi, organizmning Kasallikka qarshi qanday kurashishi, himoya va moslashuv reaksiyalarining qonuniyatlarini o'rganadi; olingan natijalarga qarab, Kasallikni aniklash, davolash va uning oldini olish usullarini ishlab chiqadi. Har bir bemorga individual, ya'ni kasalligining xili, organizmning holati va boshqa ko'pgina xususiyatlarga qarab davo qilinadi.[1]

MUHOKAMA

Yozuvchining "Ming bir jon" hikoyasida uchrovchi kasallik tahliliga o'tar ekanmiz, asar bosh qahramoni Mastura kasallikning o'tkir, o'rtacha o'tkir va surunkali xillaridan eng salbiy bo'yoq aks etuvchi surunkali turiga chalingani, ya'ni taxminan jigar sirrozi bilan og'rigani asar kontekstidan bilish mumkin:

Ertasiga Mastura haqida yana bir ko'ngilsiz gap eshitdik: bechoraning tomog'idan hech narsa o'tmasligi ustiga qorniga tez-tez suv to'planar ekan [1,141].

Kasallikning o'tishida 4 bosqich (yashirin, dastlabki, avj olish va tuzalish) bo'lib , asar qahramoni uchinchi boshqichdan to'rtinchi bosqichga o'tish arafasida edi va shu ham ma'lumki bunday surunkali kasallikning to'rtinchi bosqichi ko'p hollarda o'lim bilan yakun topardi.

Shu sho'rlik ayolni bir kirib ko'raylik! Uch kunligi bormi, yo'qmi...[1,137].

Ya'niki, yana uch kun yashay olarmikan yoki ko'p yillik darddan adoyi tamom bo'lgan bu vujud shu 3sutkaga ham yetib bormasmikan degani . Qahramonda kechgan uchinchi bosqich kam muddatni tashkil qilmagani quyidagi misollardan ma'lum.

Ha, ancha og'ir, - dedi hamshira xo'rsinib, - o'n yil dard tortish osonmi![1,137].

O'n yil? O'n yildan beri kasal ekanmi?[1,137].

Men ana ketdi, mana ketdi bo'lib yotgan edim-da [1,140] (ana ketdi, mana ketdi bo'lib yotmoq – yaqin orada joni uzilmoq, bu dunyodan ketishiga oz fursat qolgani)

Mastura Aliyeva sakkiz oydan beri palatasidan chiqmay yotgan og'ir xasta, uni kasalxonada hamma bilar, ko'p kishi kirib ko'rgan ekan[1,137].

Insonning tashqi ko'rinishi salomatlik darajasi o'laroq o'zgarib boradi. Ko'p yillik kasalning tashqi ko'rinishi hassos ijodkor Abdulla Qahhorning quyidagicha tasviri orqali berilgani inson ko'z oldida shaxs holatidagi kasallik konseptini gavdalantirishi begumon.

Ko'z o'ngimizda xasta emas, o'lik, haqiqiy o'lik, sap-sariq teri-yu suyakdan iborat bo'lgan murda ichiga botib ketgan ko'zlarini katta ochib yotar edi [1,138].

Sob bo'lgan deyishadi...[1,137]. Frazologik vositalar orqali berilgan bu gap tahlili shunday: daraxt shoxi kesib ma'lum darajadagi uzunlikda kesilib, undagi boshqa kichik shoxcha va barglari terisi bilan shilib tashlanadi. Keyin tesha, bolta kabi asboblarga dasta qilinadi. O'zbek tilida qo'llaniluvchi sop so'zining kam qo'llanuvchi bu varianti orqali inson bamisoli shoxlari va terisidan ajralgan daraxt shoxiga taqqoslanyapti.

Asar syujetida shifoxona muhiti tasviri orqali boshqa bemorlar:

Iye, Hoji aka, sizga dori berish esimdan chiqibdi-ku, yuring! – dedi va Hojini yetaklab chiqib ketdi [1,139]. Kasallik rivoji uni kimdir yetaklamasa o'zini tuta olmaslik xavfini yuzaga keltirgan.

...shunday havo bo'lsa-yu, oyoq-qo'li butun odam ko'chaga chiqolmay, derazadan mo'ralab o'tirsa!...[1,137] Sog'lom harakatdagi g'ayratli inson uchun shunchaki hech nima qilmay bir joyda yotish yot narsa, u insonda siqilish va xunoblik singari konseptlarni ham keltirib chiqaradi. Shu bilan birga kasallik konsepti ostida sabr tushunchalarini ham keltirilishi ular o'rtasidagi g'am-alam konsepti orqali parallel kesishmalar hosil qilishi quyidagi misollar orqali keltirilgan:

Hamshira yugurib kirdi, Mirrahimovning sog'ligini, kayfiyatini so'radi keyin dardni bardosh yengadi, bu xususda Mastura Aliyevadan ibrat olish kerak, degan mazmunda shama qildi[1,137].

Inson birvarakayiga bir necha dardga yo'liqishi ham mumkin: Shu jussangizga uch dard sig'adimi? [1,140]

Kasal inson ruhiyati sog'lom insondan anchagina farqlanadi. Har qanday salbiy va ijobiy voqealar kasal uchun ahamiyatli hisoblanib, uni sog'ayishi yoki ahvolining og'irlashishiga sabab bo'ladi.

Bu hol (kontekst doirasida qaralganda kasal ruhiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy voqea keltirilgan) kasalga qanday ta'sir qildi ekan, deb sekin qaradim [1,139].

Yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda konseptologik assotsiatsiyalardan na'munalar:

Kasallik va umid konsepti: Bunaqa narsalar o'lim kutib yotgan kasalga yomon ta'sir qilishi mumkin, men hech qachon o'lim kutgan emasman, kutmayman ham! [1,140]

Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta! [1,141]

Kasallik va marhamat-mehr konsepti: Kelinglar... Rahmat! Odamga odam quvvat bo'ladi, ming rahmat [1,138].

Mening yo'qlab kelganimni ko'rsa, dalda bo'ladigan biron so'z aytsam zo'raki darmon bo'lsa, deb kutdim [1,142].

XULOSA

Konseptlarni har doim ham ma'lum asar doirasida tadqiq etishni mutlaqlashtirish to'g'ri bo'lmaydi. Zeroki, konseptual maydon keng doirada va bir-biri bilan uzviy bog'liq holda rivojlana boradi. Ular orasidagi chegaralar nozik farqlar, ma'no ottenkalari, konsept ichki tuzilishiga ko'ra ajratililini. Biz mazkur maqola orqali imkon qadar kasallik konseptini yuqoridagi toifalash asosida tadqiq etishga va ma'lum asar doirasida uni o'rganishga harakat qildik.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Muhabbat / A.Qahhor. – Toshkent: Yangi asr avlodi. -248b.
2. <https://uz.m.wikipedia.org>
3. Красик В. И. Стернин И. А (пед.); Антология концептов. Т. 1, Волгоград : Парадигма, 2005, С. 10-13.
4. TAGMA'NO VA PRESUPPOZITSIYA HODISASINING PRAGMATIK TADQIQI (Abdulla Qahhor asarlari misolida)
5. NRQ To'Xtasnova, MTOQ Soibjonova - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
6. Mo'tabarxon Ozodbek qizi Soibjonova. (2022). THE CONCEPT OF SHAME IN THE WORKS OF ABDULLAH WRATH (BASED ON ABDULLAH QAHHOR'S STORY "THE WOMAN WHO DIDN'T EAT RAISINS"). <https://doi.org/10.5281/zenodo.6635466>
7. ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA MUHABBAT KONSEPTI ("Muhabbat" qissasi misolida)
8. SSOGL Mahmudjonov, MTOQ Soibjonova - ... : Innovative, educational, natural and social sciences, 2022
9. Pragmatic Properties of Limited Vocabulary in Uzbek Language Andijan State University
10. GU Pratova, MO Soibjonova

-
11. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 165-167, 2022
 12. Gavharoy Israiljon Kyzi, Nurmatova Zaxro Nosirjon qizi, & Mo'tabarxon Ozodbek qizi Soibjonova. (2022). LANGUAGE AND THOUGHT. COGNITIVE LINGUISTICS. CONCEPT. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 8(7), 17–20. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/MBK3N>